

**BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARIDA MA'NAViy,  
AXLOQIY TARBIYANI TASHKIL ETISH**

*Valiyeva Malohatxon Muxtorjonovna*

*Farg'ona viloyati. Uchko'prik tumani. 46- maktab*

*Boshlang'ich sinf o'qituvchisi*

**Annotatsiya:** Boshlang'ich sinf o'quvchilari ta'lim, tarbiyasi, axloqini shakllantirish har bir pedagogikning oliy burchi. Bu yo'lda, albatta, xalq og'zaki ijodi namunalaridan maqol, masal, badiiy adabiyotning o'rnini beqiyos. Ayniqsa, 21-asr texnologiyalar asrida, dunyo tez sur'atlarda soniyalar ichida o'zgarib borayotgan global dunyoda, bu ish ancha mehnat talab qiladi. Bu yo'lda esa oila, ota-onalarga, o'zining beminnat ko'magini bera oladigan pedagoglar yordamga keladi. Har xil yot g'oyalardan o'quvchi, yoshlarni asrab-avaylash, ularni ajdodlarimizga mos avlodlar qilib tarbiyalashda muallimlarning xizmati cheksiz. Nafaqat o'quvchilarning tarbiyasi, ta'limi o'qituvchilarga bog'liq, balki ularning yashirin qobiliyatlarini ochib berish o'qituvchilarning pedagogik mahoratidan dalolat beradi. O'qituvchilar bu ishni, albatta, boshlang'ich ta'limdan boshlaydilar. Pedagoglar axloqiy his-tuyg'ulami, xatti-harakatlarni tarbiyalaydi va bu yo'lda ulardan kuchli pedagogik mahorat talab etiladi.

**Annotation:** Formation of education, upbringing, morals of primary school students is the highest duty of every pedagogue. Of course, proverbs, proverbs, and fiction have an incomparable role in this way. Especially in the age of 21st century technologies, in the global world where the world is changing rapidly in seconds, this work requires a lot of work. In this way, family, parents, and pedagogues who can give their support come to help. The service of teachers is limitless in protecting young people from all kinds of foreign ideas, raising them to be generations worthy of our ancestors. Not only the upbringing and education of the students depends on the teachers, but revealing their hidden abilities is a proof of the pedagogical skill of the teachers. Teachers start this work, of course, from primary education. Pedagogues educate moral feelings and behavior, and in this way strong pedagogical skills are required from them.

**Аннотация:** Формирование образования, воспитания, нравственности учащихся начальных классов является высшим долгом каждого педагога. Таким образом, пословицы, поговорки и художественная литература занимают ни с чем не сравнимое место среди образцов народного творчества. Особенно в век технологий XXI века, в глобальном мире, где мир быстро меняется за секунды, эта работа требует большого труда. Таким образом, на помощь приходят семья, родители и педагоги, которые могут оказать свою благодарную поддержку.

Служение учителей безгранично в защите молодежи от всякого рода чуждых идей, в воспитании из них поколений, достойных наших предков. От учителей зависит не только воспитание и образование учащихся, но раскрытие их скрытых способностей является доказательством педагогического мастерства учителей. Учителя начинают эту работу, конечно, с начального образования. Педагоги воспитывают нравственные чувства и поведение, и в этом смысле от них требуются сильные педагогические навыки.

**Kalit so'zlar:** Tarbiya, globallashuv, maqol, axloq, badiiy adabiyot, jamiyat, boshlang'ich sinf, texnologiyalar.

**Key words:** Education, globalization, proverb, ethics, fiction, society, primary class, technologies.

**Ключевые слова:** Образование, глобализация, пословица, этика, художественная литература, общество, начальный класс, технологии.

Bugungi shiddat bilan rivojlanayotgan dunyoda, texnologiyalar jadal sur'atda o'sib borayotgan zamonda, bola tarbiyasi eng og'riqli nuqtamizga aylanib bormoqda. Chunki 21-asr avlodlari ijtimoiy tarmoqlar, zamonaviy texnologiyalar bilan hamnafas ulg'aymoqda. Statistikalarga e'tibor qaratadigan bo'lsak, 2021 yil uchun ma'lumotlar shuni ko'rsatadiki, dunyoda 5 yoshdan 14 yoshgacha bo'lgan 1,34 milliard bola va 5 yoshgacha bo'lgan 671 millionga yaqin bola bor. Hamma mamlakatlar ham bunday ma'lumotlarga e'tibor qaratmagani uchun biz Buyuk Britaniya statistikasini asos qilib tanladik. Birlashgan Qirollik yosh guruhlarini bo'yicha eng to'liq ma'lumotlar to'plamiga ega, bu shuni ko'rsatadiki, 5 yoshgacha bo'lgan bolalarning 20 foizi o'z telefoniga ega va 5-14 yosh guruhidagilarning qariyb yarmi ham bor. Boshqa mamlakatlarning ma'lumotlar to'plamiga qisqacha qarash ham xuddi shunday tendentsiyalarni ko'rsatadi.[1]

Faqatgina telefondan foydalanish ularning axloqiga ta'sir qilmaydi. Boshqa ko'pgina omillar ham bola tarbiyasiga ta'sir ko'rsatishi mumkin. Bunda, albatta, bola tarbiyasida, avvalo, oilaviy muhit, oiladagi ota-onaning bolaga bo'lgan munosabati muhim o'rin tutadi, qolaversa, bolalarning ta'limi nafaqat ta'limi, balki tarbiyasida maktab va o'qituvchilarning o'rni beqiyos. Ko'pchilik tarbiya haqida gap ketsa, "oilasida tarbiya ko'rmagan" yoxud "ota-onasi tarbiya bermagan" kabi jummalarni ishlatadi. Bolalar ulg'aygan sari tashqi muhit, ya'ni o'ziga notanish odamlar, notanish olam, notanish narsalar bilan tanishadi, va bu jarayonda oilada mukammal tarbiya olgan bolada ham hattoki o'zgarishlar seziladi. Tashqi muhit, tashqi olam ta'sir ko'rsata boshlaydi. Bu jarayonda maktabda axloqqa, ma'naviyatga kuchli e'tibor qaratilmasa, bolalar ongida bo'shliq paydo boshlaydi, ongi yot g'oyalar ta'sirida qoladi.

Maktabda, ayniqsa, boshlang'ich sinf o'quvchilaridan boshlab, ma'naviyatga, ma'rifatga axloqqa e'tibor qaratishimiz lozim. Ma'naviy-axloqiy tarbiya

- yagona ijtimoiy tarbiya jarayonining tarkibiy qismi. Jamiyat tomonidan insonlar xulqining boshqarilishiga zarurat ikki o'zaro bog'liq vazifani shart qilib qo'yadi:

birinchidan, jamiyat ongida me'yorlar, tamoyillar. ideallar, adolat, ezgulik va yovuzlik kabi tushunchalar ko'rmishida aks etadigan asoslanadigan axloqiy talablarni ishlab chiqish; ikkinchidan, inson o'z xatti-harakatlarini yo'naltirishi va nazorat qila olishi, shuningdek ijtimoiy xulqni boshqarishda ishtirok eta olishi, ya'ni boshqa kishilarga talab qo'ya bilishi va ulaming xatti-harakatlarini baholay olishi uchun bu talablarni hamda ular bilan bog'liq tasavvurlarni har bir inson ongiga singdirish. Aynan shu kkinchi vazifa insonda shaxsning tegishli e'tiqod, ma'naviy moyilliklar, histuyg'ular, datlar, barqaror axloqiy sifatlarni shakllantirishdan iborat bo'lgan axloqiy tarbiya orqali hal qilinadi. U yoki bu jamiyatda ma'naviy-axloqiy tarbiya jarayonining mazmuni uning maqsadlari bilan belgilanadi. Bu maqsadlar ijtimoiy munosabatlar tavsifi bilan belgilanadi. O'quvchilarda ma'naviy-axloqiy tarbiyani shakllantirish ulaming ma'naviy dunyosini, ongini, axloqiy hislarini, shaxsiy sifatlari va xulqinitarbiyalash hamda rivojlantirishni taqozo etadi. O'quvchilarni axloqiy tarbiyalashning asosiy vazifalariga quyidagilar kiradi:

- 1) o'quvchilarda axloqiy his-tuyg'ular va xatti-harakatlarni tarbiyalash
- 2) xulq madaniyati va ijobiy his-tuyg'ularni tarbiyalash;
- 3) axloqiy xulq-atvor ko'maklarini shakllantirish.[2, 175]

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida tarbiyani shakllantirishning eng zo'r usuli, ularga turli xil badiiy asarlar, ertaklar, masallar o'qib berishdir. O'quvchilar odatda adabiyotlardan olingan aniq misollar bilan boyitilgan hikoyalarni katta qiziqish bilan tinglaydilar. Ularga axloq me'yorlari, xalq o'tmishi, tabiiy boyliklar, qahramonlar hayoti va jasorati shuningdek tarix, adabiyot, san'at haqida hikoya qilib berish mumkin. Badiiy adabiyot namunalari shuningdek, ommaviy axborot vositalari - radio televidenie, gazeta jurnallar sahifalarida hamda internet matbuotida e'lon qilingan ma'lumotlar ham o'quvchilar uchun qimmatli material bo'lib xizmat qiladi O'quvchilar o'zlariga yaqin kishilarning xulq atvoriga taqlid qiladilar, xulq- atvorlar bolalarda yaxshi sifatlarning ba'zan, esa, yomon sifatlarning ham tarkib topishiga ta'sir ko'rsatadi. Shuning uchun o'qituvchi va ota-onalar har qanday holatda ham o'zlarini tuta bilishlari kerak. Ular qayerda bo'lishmasin, atroflarida bolalar borligini his etishlari lozimdir.[3,641]

Xalq og'zaki ijodi xalq pedagogikasining asosiy vositasidir. Xalq pedagogikasi

- bu yosh avlodni tarbiyalash bo'yicha kattalar faoliyatining o'quv predmeti va turi,

g'oyalar va g'oyalar, qarashlar va qarashlar va e'tiqodlar, shuningdek, xalq ta'limini rivojlantirish bo'yicha ko'nikma va uslublarning umumiyliigi va o'zaro bog'liqligi va yosh avlodnitarbiyalash xalq amaliy san'atida o'z ifodasini topdi. Bu millatning yosh avlodga nisbatan mentaliteti va oila va jamiyatdagi tarbiyaviy an'analar, avlodlar aloqasi va davomiyligidir. Xalq og'zaki ijodi xalqning ruhini, qadr-qimmatini, xususiyatlarini ochib beradi. Ilm-fan nuqtai nazaridan xalq og'zaki ijodi alohida o'rganishga, puxta baho berishga loyiq hodisadir. Har qanday folklor kichik janrlarda, jumladan, topishmoqlar, maqollar va matallardan kelib chiqadi.[4,465-466]

Sinfda yoki sinfdan tashqarida har bitta o'qituvchi o'quvchilar bilan birgalikda jonli muloqot qilib, ijobiy muhitni yaratishi kerak bo'ladi. Bu o'z navbatida o'qituvchining kommunikativ qobiliyatiga kiradi.

Bundan ko'rinib turibdiki, o'qituvchining o'quvchilar bilan o'zaro yaqin munosabatidan asosiy maqsad:

- salbiy holatlarni vujudga keltiruvchi barcha jarayonlarga barham berish;
- o'quvchilarda mustaqil fikr yuritish ko'nikmalarni hosil qilish;
- o'quvchilarni faollikka, erkin fikrlashga, o'z fikr-mulohazalarini cho'chimasdan bayon qilib unga tayanishga o'rgatish;
- o'quvchilarning yashirin qobiliyatlarini rivojlantirish;
- dars va darsdan tashqari jarayonlarda quvonch va shodlik kayfiyatini paydo qilish bo'lib hisoblanadi;

O'qituvchi bolaga bergan tarbiya bolani kelajakda qanday yetishishini ta'minlaydi, shu sababli tarbiyani bolaga turli jarayonlar vositasida singdiriladi. Vositalarning har bir vazifalari katta ahamiyatga ega.

Tarbiya jarayonlarining vazifalari:

1. O'quvchilarda ijtimoiy dunyoqarashni shakllantirish.
2. O'quvchilarda jamiyatga, vataniga muhabbatli va sadoqatli. Atrofdagi kishilarga axloqiy munosabatda tarbiyalash.
3. O'quvchilarda huquqiy madaniyatni tarbiyalash.
4. Atrof muhitga nisbatan to'g'ri munosabatda tarbiyalash.
5. Mehnatga to'g'ri munosabatini, kasb tanlashga jiddiy yondashuvda tarbiyalash.
6. Iqtisodiy tafakkurni, madaniyatni tarkib toptirish.
7. Tabiat va san'atdagi go'zallikni to'g'ri idkor etishga o'rganish estetik ong, idrok, mulohazasini shakllantirish.
8. Sog'lom, jismoniy, barkamol shaxsni tarbiyalash [5,362]

Bolalar tarbiyasida xalq og'zaki ijodi namunalaridan maqol o'ziga xos o'rin tutadi. O'qituvchilar maqollarni bolalarga izohlasa, bolalarda muhokama ko'nikmasi, fikrlash doirasi kengayadi. Amaldagi boshlang'ich sinf darsliklaridan o'rin olingan maqollar

o'qish darslari uchun berilgan matn mazmunini to'ldirib boradi, ifodalangan voqea-hodisaning ma'nosini yorqinroq ochishga, o'quvchilarni ezgu insoniy fazilat va xislatlar ruhida tarbiyalashga, o'qish darsini ona tili darsiga bog'lashga xizmat ko'rsatadi. Axloq, odob bahsidagi maqollarni tahlil etish orqali xalqning hukmi, maslahati ochiladi. Hunar va kasbni ifoda etuvchi maqollarda esa hunarmandchilikda nimalarga e'tibor berish kerakligi ifoda etiladi. Bunday maqollar kasb-hunarga qiziqishni kuchaytiradi. O'qituvchi maqolni tahlil etar ekan, pedagogik qonunlarga to'la amal etishi, ya'ni o'quvchilarning o'z hayotlarida unga amal qilishlarini doimo talab etib borishi lozim. [285]

O'qituvchilar maqollarni yodlab kelishlarni aytadiyu, ularni tushunganlik darajasini tekshirmaydi, qanday namuna olganliklarini tekshirmaydilar. Oddiy so'zni ham yod olish mumkin, lekin ma'noga kelganda kuchli e'tibor qaratishimiz lozim.

Bolalarni musiqa yordamida tarbiyash eng quvnoq usullardan biridir.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. <https://www.sellcell.com/blog/how-many-kids-have-a-mobile-phone/>
2. "Pedagogs" International research journal ISSN:2181-4027\_SJIF:4,995, Tursunova Saida Isakovna "BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARINI MA'NAVIY-AXLOQIY TARBIYALASH" 175-b
3. "Scientific Progress" VOLUME 3 | ISSUE 4 | 2022 ISSN: 2181-1601, Nilufar Abduvali qizi Burxonova "TARBIYANING MAQSAD VA VAZIFALARI" 641-b
4. Academic Research in Educational sciences ISSN:2181-1385, Nafisa Saydullayevna Karimova " BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARINI AXLOQIY TARBIYALASHDA, XALQ OG'ZAKI IJODIDAN FOYDALANISH" 465-466-b
5. SCIENTIFIC ASPECTS AND TRENDS IN THE FIELD OF SCIENTIFIC RESEARCH International scientific online conference, Sadinova Zarina Iloxomovna, " BOLA TARBIYASIDA O'ZBEK XALQ MAQOLLARI VA XALQ OG'ZAKI IJODINING O'RNI" 362-b
6. Boshlang'ich ta'lim sifat va samaradorligini oshirish: Strategiya, Innovatsiya va ilg'or tajribalar xalqaro ilmiy-amaliy anjumani materiallari, Istamova Sh.M. Istamova Yu. M "Kichik maktab yoshidagi bolalar tarbiyasida maqol va masalning o'rni va ahamiyati" 285-b